

SAFAR MOTIVI INITSIATSIYASI VA TELBA OBRAZI BILAN BOG‘LIQLIGI

Kamolova Sadoqat O‘lmasali qizi,*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada safar motivi, xalq og‘zaki ijodi, ertak va dostonlar hamda badiiy asarlardagi badiiy vazifasi, telba obrazi bilan bog‘liqligi shuningdek, inson kamolotidagi xissasi haqida fikr yuritiladi. Ilk safar haqida tushuncha va tahliliy fikrlar badiiy asar va hikoyalar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: safar, motiv, mohiyat, shaxs, devona, darvesh, o‘zlikni anglash, taqdir, sinov.

Аннотация. В данной статье рассматривается мотив путешествия, его художественная функция в народной литературе, сказках и эпосах, а также в произведениях искусства, его связь с образом безумца, а также его вклад в развитие человечества. Концепция и аналитические идеи о первом путешествии раскрываются на основе произведений искусства и рассказов.

Ключевые слова: путешествие, мотив, сущность, личность, безумец, дервиш, самосознание, судьба, испытание.

Annotation. This article discusses the motif of the journey, its artistic function in folk literature, fairy tales and epics, and works of art, its connection with the image of a madman, as well as its contribution to human development. The concept and analytical ideas about the first journey are revealed based on works of art and stories.

Keywords: journey, motive, essence, personality, madman, dervish, self-awareness, destiny, test.

Kirish. Adabiyot insonning ichki va tashqi olamini boyitish bilan birga, insonning qalbini o‘zgartirish xususiyatiga ega. Badiiy asar syujetini harakatga solib, qahramonni ham botiniy, ham zohiriy kamolotga yetkazib, yetuklik maqomiga erishishiga ulkan xissa qo‘shadigan yagona motiv mavjud. Bu motiv ildizi xalq og‘zaki ijodi namunalari: dostonlar, ertaklarga borib taqaladi. Motivning yana bir qimmatli va muhim jihati asar qahramoni turli insonlar bilan tanishadi, do‘st tutinadi, hiylaga uchraydi va shaxs sifatida shakllanadi. “Musofir bo‘lmaguncha, musulmon bo‘lmaysan” maqoli ham aynan manashu motiv bilan bog‘liq desak ayni muddao. Asliyatga qaralganda, safar motivi insonga jon kirgandanda “hu” dan boshlangan. Inson tanasiga ruh joylashgan kun “Ruh” safari boshlanadi. Bu dunyoda har bir tirik jon borki, safarda. Jaloliddin Rumiy aytgani kabi: “Qayon keldim, qayon ketmoqdaman?”. Inson hamisha dunyoga nega kelgani? Amallarining savobi va gunohi, ertangi savol-javobi haqidagi savollar bilan yashaydi. Odam (a.s)ning ilk dargohi Allohning dargohi edi, yerga tushirilgach safar boshlandi. Safar yakunida yana o‘sha makonga qaytish bitilgan.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, safar motivi uch makonda: ko‘k, yer va yer osti dunyosida amalga oshadi. “G‘o‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni orqali ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uning tug‘ilishi va hayotining davom etishi-go‘r xronotopi bilan bog‘liq. Yerga chiqishi bilan unda safar boshlanadi, shuningdek G‘o‘ro‘g‘li bir makondan ikkinchi makonga (o‘liklar dunyosidan odamlar dunyosiga) chiqdi. Mana shu voqeadan so‘ng initsiatsiya hodisasi ya‘ni- G‘o‘ro‘g‘li hayotida sinov va bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga o‘tish jarayoni ish boshlaydi. Bu haqida folklorshunos Shomirza Turdimovning

“Turdimov, Shomirza. 2020. “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonida initsiatsiya talqini”. Oltin bitiglar 3: 27-37” [1..27-37] nomli tadqiqot ishida batafsil yozilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega hisoblanib, qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Xalq og‘zaki ijodi, Sharq mumtoz namunalariidan tortib, zamonaviy roman, qissa va hikoyalar bilan safar motivi tahlilga olinib, motivning ramziy ma‘nosi, mohiyati va badiiy vazifasi ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. “Alpomish” dostoni syujetining deyak 70/80 foizini harakatlantiruvchi asosiy motiv safardir. Zakot maslalasidan keyin Boysari xalqi bilan Qalmoqqa ketdi. Barchinga bergan ahdi sabab Alpomish yo‘lga tushdi. Yor uchun safarga otlangan alp doston so‘ngida xalq birligi uchun ulkan xizmatlar qilgan yetuk insonga aylanadi. Safar davomida Alpomish xarakteridagi beparvolik, xotirjamlik o‘z o‘rnini diqqatli, jasur va ma‘naviyati o‘sgan qahramonga aylantiradi. Zindonda o‘tgan yetti yillik mahbuslik initsiatsiyasi alpni pirlar yordami bilan alp maqomini olishiga turtki vazifasini o‘tadi. Bu jarayon turg‘unlik emas, uyg‘onish davri desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Demak, safar motivi uch bosqich: yo‘lga chiqish (o‘z makonini tark etishi, ot tanlashi, ota-onasidan duo olishi), yo‘ldagi hodisotlar (safari davomidagi sinovlar, do‘stlashuv jarayoni va qayta uyg‘onish-o‘zligini topish), o‘z makoniga qaytish (missiyani bajarish va yangi maqomga erishish) kabi transformatsiya jarayonidan iborat.

Safari motiviga sehri ertaklarda ham duch kelamiz. Ertaklarda parilar tomonidan qahramonga sinov beriladi, sinovdan o‘tish uchun safarga chiqiladi yoki yovuz mahluqni yengish uchun tilsimni topishga kirishiladi. Safari davomida qahramon turli to‘siqlarga uchrab, ma‘naviy olamini kengaytirib boradi. Biroq tadqiqot ishimizning asosiy omillaridan biri “telba” obrazining safari motivi bilan bo‘g‘liqligi nimada? Degan savolga javob izlash.

Telba so‘zining ma‘nolariga e‘tibor qaratsak, Biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoyi ma‘nolarini ifodalaydi. Tasavvuf ta‘limotida uning “devona”, “darvesh”, “qalandar” ko‘rinishlari uchraydi. Tasavvuf ko‘ngil va vijdon uyg‘unligi mujassamlashgan ilm, shu sabab telba obrazi tabiatidagi ko‘p xususiyatlarga uyg‘un. Darvesh-devonalar bu uyg‘unlikka safarga chiqib, nafsini jilovagan holda erishishadi. Safari motivi ularning hayotidagi eng katta birlamchi omil sanaladi. Boshqacha qilib aytganda ahlulloh (xudoni qidiruvchilar) haqni tanib olishni tanlab yo‘lga chiqqanlar sufiylar-ular uchun begona joy yo‘q. Hayyo-hu deb qo‘liga tayoq olishadida tavakkul bilan yo‘lga tushishadi. Qayerda qo‘nim topishsa ana shu yer ularga oid. So‘fiy aqidasiining asosi “bir” bo‘lishi kerak; “bir” deyish, “bir”ni qidirish va “bir”ni kuzatish asosida, yagona va mutlaq zotdan boshqa biron narsa borasida o‘ylamasligi zarur. Tasavvuf va irfon qoidalariga binoan, so‘fiy va haqiqiy orif, haqiqiy inson o‘rnida turishi lozim. Insonlarni sevish, ularning xizmatida bo‘lish, ayni holda xudoning borligi va birligini unutmaslik, so‘fiylarning asosiy aqidasiidir.[2.160] Qalandar-darveshlar, devonalar sufiylik ta‘limoti

ildizlari hisoblanadi. Ustidagi juldur kiyimidan to tilidan chiqqan dono soʻzlari-yu hikmatlari bilan ular xos kishilardandir.

Devonalar bu dunyo lazzatlaridan voz kechgan kishilar. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida koʻrdikki, devona, darveshlar-dono va maʼrifatli kishilar, ular duo qilgan oʻgʻlon-qizlar alp boʻlib yetishadi, jasoratda cheksiz boʻlib, kuchda ham adolatda ham yetuk shaxs sifatida ulgʻayadi. Devonalar yoʻli tavakkal, ularning qarshisidan chiqadigan kishilar turfa, rizqini ham Allohga tavakkul qilgan insonlardir. Telbalar Yaratganning yerdagi farishtalari hisoblanib, ular bor joyda quvnoqlik bor, hotirjamlik bor. Sharq adabiyoti tasavvuf tafakkuri bilan sugʻorilgani bois, bugungi kunga qadar yozilgan barcha asarlarda ishtirok etgan telba, devona, darvesh-u qalandar obrazlarida mana shu mohiyat saqlanib kelinmoqda. Telbalar kutilmaganda qahramonning qarshisida paydo boʻladi. Qahramon izlagan koʻplab savollarga telbalarda albatta javob va yechim bor. Dunyo koʻrgan kishilar har jihatdan oddiy insonlardan tafakkurda, maʼrifatda, salohiyatda ham ajralib turadi. Ustidagi juldur-kiyimi, belidagi nosqovogʻi shuningdek, hassasi ularning bor-budi. Ular dunyo mollariga nazar ham solmaydi. Shu sabab hamisha zehni ochiq, qalb koʻzi ochiq. Oldidagi xatarni, doʻst-u-dushmani, yaxshi-yomonni tez ajrata olishadi. Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanida “Qovoqdevona” qismida devona beliga qovoqlarni ilib, har biriga davlat amaldorlarining nomini qoʻyib mahallalarda aylanib yuradi. Devonaning shaharni qaysi chetida uchratish mumkin hech kim bilmaydi. Kutilmaganda paydo boʻladi va davraga kulgu ulashadi. Davlat amaldorlaridan birining toʻyi boʻlgani, toʻyda qatnashgani, “bir lagan osh tekkan”-devonaning tilidan aytiladi. Demakki, qovoqdevona istagan joyiga, katta davralarga bemaolol kirib chiqa oladigan obraz.

Telbacha harakatlari bilan kitobxon qalbiga oʻrnashgan Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasi boshdan oxirgacha safar motivi asosida qurilgan. Shum bolaning har sayohati kitobxonga yangi kashfiyotlar, yangi anglashlar, shu bilan birga yangi bilimlar beradi. Shum bola sayohati davomida katta-kichik davralarni koʻradi. Uyga qaytuncha boʻlgan davrda hayotning ulkan darslarini olib ulgʻayadi.

Bugungi kunda koʻplab hikoya va qissalarda ham aynan mana shu safar motivi falsafiylik bilan badiiy asar matniga umumboqiylik baxsh etyapti. Ulugʻbek Hamdamning “Bir payola suv” hikoyasida qahramon karvonni aytilgan manzilga aytilgan vaqtda yetkazish missiyasida yoʻlga chiqqan. Jazirama issiq va quyosh tafti bir payola suv uchun qahramonni yaxshigina sinovga tashlaydi. Nafsi orqali sinalgan qahramon natijada yoʻlini oʻzgartiradi va karvonsaroyga kiradi. Tasavvufiy maʼnoda dunyo lazzatlariga aldandi va hayot yoʻli yoʻqotdi. Inson safarda toblanadi, dunyoqarashadi kengayadi. Kunimizda “Bir mamlakatni koʻrgan inson kitobning bir varogʻini oʻqibdi”, degan mashhur gap bor. Dunyo koʻrish, safarga chiqishning ahamiyati haqida hazrat Navoiy shunday deydi: “Tasavvufda solikning Parvardigor sari safar (uning hayoti) qilsa, bu safarda u 7 maqomni

bosib o'tadi. Birinchi maqom tavnadir". [3.160]Safardagi eng katta maqom bu insonning tavbasi va Allohga qaytishi ekanligi eng muhim va birlamchi xususiyatdir.

Yuqorida tilga olgan asarlarimiz o'zida ma'lum ramziy ma'no tashiydi. Quyidagi jadvalda buni ko'rib o'tamiz:

t/r	Asar nomi	Safar motivining ramziy ma'nosi
1.	"Go'ro'g'li" dostoni	O'zlikni izlash ramzi
2.	"Alpomish" dostoni	Va'daga vafo va nomus ramzi
3.	"O'tkan kunlar" romani	Taqdir va o'zlikni anglash ramzi
4.	"Shum bola" qissasi	Sinov va yetuklashish ramzi
5.	"Bir payola suv" hikoyasi	O'zlikni anglash ramzi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, safar motivi har qanday badiiy asarning falsafiy yukini tashiydi. Voqealar rivojiga dinamik ko'tarilish beradi. Qahramonning ma'naviy kamoliga, yetukligiga xissa qo'shadi. Safar motivi asosida harakatlanuvchi har qanday asar mohiyatida insonni hayot sinovlari ulg'aytiradi, toblaydi va bardoshli qiladi. Safarga chiqqan darveshlar yo'lida uchragan har qanday yaxshi-yu yomon, mushkuli og'ir insonlarga hayot saboqlarini berishi bilan yanada mohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdimov, Shomirza. 2020. "Go'ro'g'li" ("Ko'ro'g'li") dostonida initsiatsiya talqini". Oltin bitiglar 3: 27-37
2. АБДУХОЛИҚ ҒИЖДУВОНИЙ ВА ТАСАВВУФ. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, 2003 й.
3. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. Toshkent: Yoshlar nashri-yot uyi, 2018. - 160 b.
4. Жўрақулов, Узоқ, Қодирий ва роман тафаккури : монография / У. Жўрақулов. - Тошкент: "Nurafshon business", 2020
5. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar". "SHARQ" NMAK 2018-yil. 384 b
6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi Toshkent-2018
7. G'ulom, G'ofur. Shum bola: qissa/G'. G'ulom. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 192 b.
8. <http://www.ziyouz.com>